



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel-may.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdukirimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиλλαевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLİYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tahirjon Izzatullo o'g'li	
DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE	104
Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....	112
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov	
O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	119
Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich	
TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI	124
Samadova Solik qizi, Normurodov Husan	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	130
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li	
ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	137
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA Olish, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	141
Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	147
Iskandarov Qudrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi	
IQTISODIY ATAMALARINING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	154
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Salamova Oliya	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	158
Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li	
RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI.....	164
Shermuxe'dov Bexzodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING AXBOROT BOZORIGA TA'SIRI: MAHSULOT VA MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR.....	170
Mo'y'dinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiye'vich	
ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA.....	175
Axmedov Xasan Ruzibaye'vich, Ruzibaye'va Karima Shavkat qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SARATON KASALLIGIDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA: "5 OLAM" MODELINI KENGAYTIRISH VA AMALIY QO'LLASH	182
Salayeva Laylo Shavkatovna, Toshtemirov Doston Tohirjon o'g'li	
THE CHALLENGES OF MANAGING CROSS-FUNCTIONAL TEAMS IN PHARMACEUTICAL PROJECTS	187
Murodova Feruzakhon Talatovna	
GREEN ECONOMY AND GREEN INVESTMENT: SUSTAINABLE AS A MAIN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH.....	194
Tursinov A.J., Jalgasbaeva J.A., Axmetova U.M.	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	199
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich, Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	
O'ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	204
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Baxronov Timur Rustamovich	



ZAMONAVIY TASHKIOTLARDAGI STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	208
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT IQTISODIYOTI VA BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARI.....	213
Boltayeva Sh.B., Hayitova Charos, Latipova Jasmina	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	216
Izzatillayeva Munisabonu Ikromjon qizi, Yangiboyev Sirojddin Juramurodivich	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	220
Ashurova Nilufar Yuldosh qizi, Xurshidjon Tillayev Sulaymon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH	225
Iskenderov Axmet Maksetbaevich, Irisaliyeva Kamola Otabekovna	
MUQIMIY IJODIDA SAYOHAT MOTIVLARI VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	228
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Muxitdinova Muxlisa Sadriddinovna	
HISTORICAL STAGES OF DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE	233
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Komilov Sarvar Firdavs ugli	
O'ZBEK TILINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	237
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Faruxov Shoxrux Tolibovich	
УЧЁТ ТРУДА И ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРИКЛАДНЫЕ АСПЕКТЫ.....	242
Махмуджанов Мухаммадали Максуджан угли, Абдурашидова Марина Сагатовна	
O'ZBEKISTONNING GLOBAL IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	246
Xudonazarov Murod Maxmudjanovich, Ramanberdiyev Umidbek Jamoladdin o'g'li	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА: АНАЛИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ НИУ ВШЭ	249
Бозорова Фарангиз Шерзод кизи, Мусаев Озоджон	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	255
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Abduraxmonova Aqida Fayzulla qizi	
NAVOIY ERKIN IQTISODIY ZONASINING NAVOIY VILOYATI IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI.....	260
Raxmonov Ilg'or G'aybullayevich, Zuvaydullayeva Shahzoda Sayfiddin qizi	
KORXONALARDA KASSADAGI PUL MABLAG'LARI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	265
Isroilov Zuhridin, Toshimov Azizbek	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	269
Karimova Latofat Sadullayevna, Jabborov Abdulla Akbar o'g'li	
O'ZBEKISTON FUQAROLARINING MEHNAT MIGRATSIYASIDA HUQUQIY HIMOYASINI TA'MINLASH	276
Shamsiddinov Yahyobek Anvar o'g'li, Musayev Ozodjon	
IQLIM O'ZGARISHINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI: QISHLOQ XO'JALIGI VA SANOATDAGI XAVF VA YO'QOTISHLAR.....	282
Shohibov Azizbek Dilshod o'g'li, Karimova Komila Daniyarovna	



DIGITAL ECONOMY AND INNOVATIVE DEVELOPMENT STRATEGIES	287
Samadqulov Muhammadjon Islom ugli, Ismoilov Sulaymon Ahmadjon ugli	
МЕТОДИКА ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТОРСКОГО АНАЛИЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ИМ АУДИТОРСКОЙ ОЦЕНКИ	290
Мирзаева Сабина Хушнудовна, Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи	
O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING AHOLINING REAL DAROMADLARIGA TA'SIRI.....	294
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR VA DAVLAT STANDARTLARI ASOSIDA LIKVIDLIK RISKLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	298
Quvondiqov Rozimurod, Toshimov Azizbek	
ECONOMIC EFFICIENCY OF FINANCING INFRASTRUCTURE PROJECTS THROUGH PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS.....	305
Djurayev Olimjon Narkulovich, Ermuminov Elbek Erkin ugli	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТАБАЧНОЙ ПРОДУКЦИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ДОХОДЫ.....	312
Акбарова Лайло Упашевна, Атамурастов Атабек Айбекович	
THE ROLE OF THE STATE BUDGET IN FINANCING THE EDUCATION SYSTEM.....	319
Sarsenbaev Bakhtijan Abdulgazievich, Jenisbaeva Khurziya Yerkinbay kizi, Khayirbaeva Balzira Parakhat kizi	
DAVLAT BUDJETI PROGNOZINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT VA GENDER TENGLIGI KO'RSATKICHLARINING AHAMIYATI.....	324
Ismoilova Mohiraxon Iqbol qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	



DAVLAT BUDJETI PROGNOZINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT VA GENDER TENGLIGI KO'RSATKICHLARINING AHAMIYATI

Ismoilova Mohiraxon Iqbol qizi

TDIU MMT-59/24 guruhi talabasi

mohiraismoilova562@gmail.com

ORCID: 0009-0009-1411-7190

Sharapova Mashxura Azadovna

TDIU "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası dotsenti, PhD

sharapovamash@mail.ru

ORCID: 0009-0004-0345-5171

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat budjeti prognozini shakllantirishda yashil iqtisodiyot va gender tengligi ko'rsatkichlarining ahamiyati tahlil qilingan. Budjetni prognozlash jarayonida ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurati asoslab berilgan hamda ularning fiskal barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida "yashil" va gender indikatorlarini budjet jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari ko'rib chiqilib, ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, inklyuzivlik, yashil iqtisodiyot, fiskal strategiya, budjet prognozi, budjet samaradorligi, ijtimoiy tenglik, barqaror rivojlanish maqsadlari.

Abstract: This article analyzes the importance of green economy and gender equality indicators in the formation of state budget forecasts. It substantiates the necessity of considering environmental and social factors in the budget planning process and highlights their role in ensuring fiscal sustainability. In addition, based on international experience, mechanisms for integrating "green" and gender indicators into the budget process are examined, and proposals and recommendations for their application in the practice of Uzbekistan are developed.

Key words: state budget, inclusiveness, green economy, fiscal strategy, budget forecasting, budget efficiency, social equality, sustainable development goals.

Аннотация: В данной статье анализируется значение показателей «зелёной» экономики и гендерного равенства при формировании прогнозов государственного бюджета. Обосновывается необходимость учёта экологических и социальных факторов в процессе бюджетного планирования, а также раскрывается их роль в обеспечении фискальной устойчивости. Кроме того, на основе международного опыта рассматриваются механизмы интеграции «зелёных» и гендерных индикаторов в бюджетный процесс, а также разрабатываются предложения и рекомендации по их применению в практике Узбекистана.

Ключевые слова: государственный бюджет, инклюзивность, «зелёная» экономика, фискальная стратегия, бюджетное прогнозирование, эффективность бюджета, социальное равенство, цели устойчивого развития.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida davlat moliya tizimini samarali boshqarish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda davlat budjeti nafaqat moliyaviy resurslarni shakllantirish va taqsimlashning asosiy instrumenti, balki iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli davlat budjetini samarali shakllantirish va uning barqarorligini ta'minlash masalasi iqtisodiy boshqaruv tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonni amalga oshirishda budjet prognozi parametrlari muhim omil hisoblanadi. Davlat budjeti prognozi — bu mamlakatning makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari asosida kelgusi davr uchun davlat budjeti daromadlari, xarajatlari hamda budjet balansining kutilayotgan hajmini oldindan aniqlash va baholash jarayonidir [1]. Budjetni prognozlash tizimi davlatning moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish, budjet taqchilligini nazorat qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamda ijtimoiy majburiyatlarni barqaror moliyalashtirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillarining keng qo'llanilishi esa davlat moliyasini boshqarish jarayoniga yangi yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Xususan, budjet siyosatini



shakllantirish va prognozlash jarayonida ekologik barqarorlik hamda ijtimoiy inklyuzivlikni aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston moliyaviy siyosatida yangi yondashuv sifatida "yashil" va gender indikatorlarini davlat budjeti prognozi jarayoniga integratsiya qilish mexanizmi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 30-yanvardagi 326-sonli "O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq, har yili kelgusi moliya yili uchun budjet prognozi hamda undan keyingi ikki yilga mo'ljallangan budjet ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida fiskal strategiya va Budjetnoma ishlab chiqiladi. Ushbu hujjatlarda "yashil" va genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish doirasida erishilgan natijalar, shuningdek, istiqboldagi islohotlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni kiritish talab etiladi [2].

"Yashil" va gender indikatorlari davlat budjeti prognozida nafaqat samaradorlikni, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. "Yashil" ko'rsatkichlar resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejamkorligini oshirish va atrof-muhit xavfini kamaytirishga xizmat qilsa, gender indikatorlari moliyaviy resurslarning jamiyatdagi turli guruhlar, xususan, ayollar va erkaklar uchun adolatli taqsimlanishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv O'zbekiston budjet siyosatini jahon barqaror rivojlanish standartlariga moslashtiradi va iqtisodiy hamda ijtimoiy inklyuzivlikni mustahkamlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotlarida qayd etilishicha, yashil indikatorlarni budjetga tatbiq qilish jarayonida ularning qamrovi muhim metodologik masala hisoblanadi. Tashkilot tavsiyalariga ko'ra, dastlab iqlim va ekologik maqsadlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan qishloq xo'jaligi, transport, energetika, sanoat va atrof-muhit kabi ustuvor tarmoqlardagi budjet choralari qamrab olish maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik institutsional imkoniyatlar kengaygani sari barcha sektorlar va xarajat turlarini qamrab olish tavsiya etiladi.

Tashkilot hisobotida ta'kidlanishicha, amaliyotda ko'plab mamlakatlar yashil indikatorlarni asosan ekologik jihatdan ijobiy ta'sirga ega xarajatlarga nisbatan qo'llaydi, salbiy ta'sirga ega subsidiyalari yoki soliq imtiyozlari esa ko'pincha tahlildan chetda qoladi. Biroq tadqiqotlar ayrim davlatlarda ekologik zararli choralar hajmi ijobiy choralar hajmidan yuqori bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Jumladan, Finlandiya va Indoneziya tajribasi salbiy choralarni ham hisobga olish muhimligini tasdiqlaydi. Shu sababli ekspertlar yashil indikatorlarni budjetga tatbiq qilish jarayonini bosqichma-bosqich joriy etishni tavsiya etadilar [3].

Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, gender indikatorlarini budjet prognozi tizimiga integratsiya qilish davlat moliyasini boshqarish jarayonining barcha bosqichlarida gender omillarini hisobga olishni talab qiladi. Bunda asosiy maqsad — budjet siyosati va fiskal qarorlar jinslar o'rtasidagi tenglikka qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash va resurslarni taqsimlash jarayonida ushbu omillarni tizimli ravishda inobatga olishdir. Shu nuqtai nazardan, gender indikatorlarini o'rta muddatli budjet prognozlari va yillik budjetni rejalashtirish jarayoniga kiritish davlat xarajatlari va soliq siyosatining genderga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Biroq XVJ tahlillari shuni ko'rsatadiki, genderga yo'naltirilgan budjet vositalarining davlat moliyasini boshqarish tizimiga integratsiyasi hatto rivojlangan davlatlarda ham to'liq shakllanmagan. Xususan, G7 mamlakatlarining hech birida genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish uchun alohida huquqiy asos yaratilmagan. Shunga qaramay, ayrim davlatlarda ushbu yondashuvning muayyan elementlari joriy etilgan. Masalan, rasmiy gender budjeti bayonotlari faqat Kanada, Fransiya va Yaponiyada e'lon qilinadi. Institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlari ham barcha mamlakatlarda bir xil darajada rivojlanmagan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda davlat budjeti prognozini shakllantirish jarayonida "yashil" va gender indikatorlarining ahamiyatini o'rganish uchun tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida umumlashtirish va tahlil qilish ishlari olib borildi. Shuningdek, mavjud statistik ma'lumotlar tahlili orqali amaldagi tendensiyalar baholanib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri aniqlashtirildi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirilib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi fiskal siyosatni mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim instrument sifatida baholaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hukumat tomonidan qabul qilinadigan deyarli har qanday siyosiy yoki iqtisodiy qaror ekologik muhitga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ta'sirlar ayrim hollarda sezilarli darajada bo'lishi mumkin, shu sababli ularni budjetni shakllantirish va rejalashtirish jarayonida hisobga olish barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Mamlakatning ekologik muhitini muhofaza qilish va uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan budget prognozi nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi, balki davlatning xalqaro miqyosda qabul qilgan majburiyatlarini samarali amalga oshirish uchun ham muhim moliyaviy asos yaratadi. Xususan, bu jarayon 2015-yilda qabul qilingan Parij bitimi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida belgilangan vazifalar va ko'rsatkichlar ijrosi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ekologik jihatdan sezgir budget boshqaruvi alohida yoki mutlaqo yangi tizim yaratishni talab etmaydi. Aksincha, bu mavjud budget boshqaruvi mexanizmlarini zamonaviy ekologik talablarga mos ravishda takomillashtirish va moslashtirishni anglatadi. Mazkur yondashuv doirasida XVJ yashil indikatorlarni budget jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha 5 ta asosiy prinsipni ishlab chiqqan [5].



1-rasm. Yashil indikatorlarni budget jarayoniga integratsiya qilish prinsiplari[5]

Xalqaro Valyuta Jamg'armasining 2022-yilgi stress testi natijalariga ko'ra, agar muvofiqlashtirilgan iqtisodiy siyosat amalga oshirilmasa, iqlim o'zgarishi jahon YIMini 1,8 trillion AQSH dollariga qisqartirishi mumkinligi aniqlangan [6]. Shu bois, ekologik xatarlarning oldini olishga qaratilgan samarali siyosatni shakllantirish va izchil amalga oshirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli rivojlanishni qo'llab-quvvatlash jihatidan ham alohida dolzarblik kasb etadi.




O'zbekiston iqtisodiy siyosatida so'nggi yillarda modernizatsiya jarayonlari jadallashib, fiskal shaffoflikni oshirish hamda ijtimoiy yo'naltirilgan dasturlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, shunga qaramasdan, davlat budjeti amaliyotida gender indikatorlaridan foydalanish hali to'liq tizimli tus olmagan.

Xalqaro tadqiqotlar esa budjetni neytral deb baholash amalda uni gender jihatidan e'tiborsiz qoldirish bilan teng ekanligini ko'rsatadi. Chunki budjet doirasida qabul qilinadigan har qanday qaror — soliqlar tizimi, subsidiya ajratish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlar — erkaklar va ayollarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy budjetlashtirish amaliyotida esa ushbu tafovutlar ko'pincha hisobga olinmaydi.

Gender omillarini inobatga olmaydigan budjet siyosati jamiyatning mavjud iqtisodiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga to'sqinlik qiladi. Xususan, ayollar iqtisodiy faolligi past darajada bo'lgan mamlakatlarda bunday yondashuv gender nomutanosibliklarining yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, mehnat bozori, ijtimoiy himoya tizimi hamda tadbirkorlikni rivojlantirish sohalarida gender tafovutlari hanuz sezilarli darajada saqlanib qolmoqda.

2017–2023-yillar oralig'ida ayollar va erkaklar o'rtasidagi ishsizlik darajasi dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy sharoitlarning murakkablashuvi fonida O'zbekistonda ayollar ishsizlik darajasi erkaklarnikiga nisbatan izchil ravishda yuqori darajada saqlanib qolgan (2-jadval). Ayrim davrlarda ishsizlik ko'rsatkichlarining keskin oshishi mehnat bozorida beqarorlik hamda umumiy iqtisodiy vaziyatning murakkablashuvi bilan bog'liq bo'lgan. So'nggi bosqichda nisbatan barqarorlashuv kuzatilgan bo'lsa-da, gender tafovuti hanuz mavjudligicha qolmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda ayollar ishsizlik darajasining UMICS va jahon o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoriroq bo'lishi iqtisodiy o'sish va bandlikni rag'batlantirishga qaratilgan budjet choralarida gender jihatini yanada kengroq inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.



2-rasm. 2017-2023-yillarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi ishsizlik darajasi, foizda [9]

Bugungi kunda gender indikatorlarini budjet prognozi jarayoniga tatbiq qilish O'zbekiston uchun nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy zaruratga aylanib bormoqda. Jahon Banki va UN Women hisobotlariga ko'ra, ayollar iqtisodiy faolligining oshirilishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining sezilarli darajada, ya'ni 10–12 foizgacha o'sishiga xizmat qilishi mumkin [10]. Shu nuqtai nazardan, aholining yarmiga yaqin qismini tashkil etuvchi ayollarning mehnat bozori va tadbirkorlik faoliyatida to'liq ishtirok etmasligi mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Ushbu nomutanosibliklarni kamaytirishning eng samarali yo'li gender indikatorlarini budjet jarayoniga integratsiya qilishdir. Chunki an'anaviy makrofiskal tahlil yashirin bandlik zaxiralarini, xususan, ayollar mehnat resurslaridan to'liq foydalanilmayotganini aks ettirmaydi. Gender indikatorlari esa aynan shu "foydalanilmayotgan iqtisodiy salohiyat"ni aniqlab, budjet resurslarini yuqori multiplikativ samaraga ega yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari davlat budjeti prognozini shakllantirishda an'anaviy makroiqtisodiy yondashuvni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Amaldagi tizimda fiskal ko'rsatkichlar asosan iqtisodiy parametrlar asosida baholanadi, bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini to'liq aks ettirmaydi. Shu munosabat bilan budjetni



prognozlash jarayonida har bir fiskal chorani uch komponent asosida — iqtisodiy natija, ekologik ta'sir va gender ta'siri bo'yicha baholovchi integratsiyalashgan mexanizmni joriy etish taklif etiladi. Mazkur yondashuv budjet qarorlarini ko'p o'lchovli baholash imkonini beradi va resurslarni yuqori qaytuvga ega yo'nalishlarga yo'naltirishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, budjet tizimida ekologik jihatdan salbiy ta'sirga ega bo'lgan yashirin subsidiyalar va soliq imtiyozlarini aniqlash hamda ularni alohida fiskal toifa sifatida kiritish zarur. Bu amaliyot fiskal risklarni kamaytirish va resurslarni qayta taqsimlash samaradorligini oshiradi. Budjet prognozining barqarorligini ta'minlash maqsadida iqlim xatarlari asosida stress-test mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuv turli sharoitlarda davlat moliyasining barqarorligini baholash imkonini beradi.

Shuningdek, ayollar bandligini oshirishga yo'naltirilgan xarajatlarni ijtimoiy xarajat sifatida emas, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi investitsiya sifatida budjet prognoziga kiritish zarur. Bu orqali mehnat resurslaridan foydalanish darajasi oshadi va soliq bazasi kengayadi. Bundan tashqari, budjet mablag'larini taqsimlashni ekologik va gender natijalar bilan bog'lash, ya'ni natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmini joriy etish davlat xarajatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, taklif etilayotgan yondashuv davlat budjeti prognozini an'anaviy hisob-kitoblar doirasidan chiqarib, uni ko'p o'lchovli fiskal boshqaruv instrumentiga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi", O'zbekiston Respublikasining qonuni, 26.12.2013-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2026-yil 30-yanvardagi 326-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 20-fevralda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3558-4.
3. OECD (2021). Green Budget Tagging: Introductory Guidance & Principles. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/fe7bfcc4-en>
4. International Monetary Fund. (2017, April 19). Gender Budgeting in G7 Countries (IMF Policy Paper). <https://www.imf.org/-/media/files/publications/pp/pp041917gender-budgeting-in-g7-countries.pdf>
5. Aydin, O., Battersby, B., Gonguet, F., Wendling, C., Charaoui, J., Petrie, M., & Suphachalasai, S. (2022). How to Make the Management of Public Finances Climate-Sensitive—"Green PFM". Washington, DC: International Monetary Fund. <https://www.imf.org/-/media/files/publications/howtonotes/2022/english/htnea2022006.pdf>
6. International Monetary Fund. (2022). Stress Testing the Global Economy to Climate Change-Related Shocks in Large and Interconnected Economies. IMF Working Paper. <https://www.imf.org/-/media/files/publications/wp/2022/english/wpiea2022189-print-pdf.pdf>
7. Benkhodja, M. T., Ma, X., & Razafindrabe, T. (2023). Green monetary and fiscal policies: The role of consumer preferences. Resource and Energy Economics.
8. Vord, J., Sirunyan, V., Ishankulov, Sh., Xolbadalov, U., & Xvan, A. (2023). Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O'zbekiston. Toshkent: BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD). https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2024-01/cpeir_uzbekistan_2023_uzb.pdf
9. World Bank. (2024). Gender Data: Uzbekistan. World Bank Gender Data Portal.
10. World Bank. (2024). Uzbekistan Country Gender Assessment: Gender Equality for Prosperity. Washington, DC: World Bank.
11. Sharapova M.A., Ismoilova M.I. Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishning xalqaro maydondagi o'rni va samaradorlik ko'rsatkichlari. Moliya, pul va kredit ilmiy-ommabop jurnali. — 2026. — №3. — B. 89–95.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
